

O‘ZBEKISTON TO‘QIMACHILIK, TIKUV-TRIKOTAJ SANOATINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA “GSP+” IMTIYOZLARI TIZIMIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Abduraxmanov Abduhakim Abdurasulovich

“O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi departament boshlig‘i

Istamov Firdavs Xazrat o‘g‘li

“O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi yetakchi mutaxassisi

Sharofiddinov Shohrux Ulug‘bek o‘g‘li

“Alfraganus” universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonning to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida eksport qilinadigan mahsulotlar turi va hajmini ko‘paytirish, shuningdek, belgilangan xalqaro talablar va me‘yorlarga moslashtirish orqali mahsulotlarni Yevropa ittifoqi mamlakatlariga eksportini amalga oshirish yo‘nalishlari ochib berilgan. Mualliflar tomonidan eksport faoliyatida “GSP+” imtiyozlar tizimidan samarali foydalanishning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, eksport, “GSP+” imtiyozlar tizimi, eksport hajmi, ip-kalava tayyor mahsulot, bojxona bojlari.

Аннотация

В статье раскрыты пути увеличения объемов экспорта продукции текстильной и трикотажной промышленности Узбекистана, а также экспорта продукции в страны Европейского Союза путем адаптации ее к установленным международным требованиям и нормам. Авторы рассказали о важности эффективного использования системы льгот в рамках «GSP+» в экспортной деятельности.

Ключевые слова: Текстильная промышленность, экспорт, преференциальная система «GSP+», объем экспорта, пряжа и готовая продукция, таможенные пошлины.

Abstract

The article reveals the ways to increase the type and volume of exported products in the textile & garment industry of Uzbekistan, as well as to export products to the countries of the European Union by adapting them to the established international requirements and norms. The authors spoke about the importance of effective use of the “GSP+” system of benefits in export activities.

Keywords: Textile industry, export, “GSP+” preferential system, export volume, yarn and garment, customs duties.

KIRISH

Jahon mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyoti global iqtisodiyot muhitida tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va eksportning yuqori o‘rish suratlari bilan bog‘liq. Mamlakatlar o‘zining milliy raqobatbardosh iqtisodiyotini shakllantirish uchun

mahalliy mahsulotlarni ichki bozorni to'liq ta'minlash bilan birga, boshqa mamlakatlarga eksport qilish, mahsulot va xizmatlarni jahon standart va me'yorlariga olib chiqish bugungi kunning asosiy masalasidan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60- son Farmonida respublikamizning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish, eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish, tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb qilish, shuningdek, xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish va eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirib, Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish, eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6500 tadan 15 000 taga, tovarlarning eksport geografiyasini 115 tadan 150 taga yetkazish kabi muhim yo'nalishlar belgilab berildi [1].

Milliy iqtisodiyotimizning raqobatbardosh tarmoqlaridan biri to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati hisoblanib, 2022 yilda soha korxonalari tomonidan umumiy qiymati **79,9** trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'sish sur'atlari **118,4** foiz va respublikaning YalMning 8,9 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilda esa **93,6** trln so'mlik o'sish sur'atlari esa **111,5** %ni tashkil etdi.

Sohani yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvar "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-2-son Farmonida gazlama, trikotaj mato va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari eksport qiluvchi korxonalarni uzluksiz, jumladan revolver kreditlash asosida aylanma mablag' bilan ta'minlash, gazlama, gilamchilik, bo'yash-pardozlash, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalariga kredit liniyalari ochish, taniqli brendlar vakillarining respublikada har yili o'tkaziladigan ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etishi, shuningdek, to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalariga moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritishni joriy qilish xarajatlarini bir qismini Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan qoplab berishi kabi muhim vazifalar belgilab berildi [2].

Mazkur maqolada yuqorida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash uchun soha korxonalarini eksport darajasini oshirish uchun mahsulotlarni jahon standartlari asosida ishlab chiqarish, bunda esa jahonda tan olingan xalqaro sertifikat va standartlarni tarmoq korxonalariga joriy etish orqali "GSP+" imtiyozlar tizimidan unumli foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

GSP konsepsiyasi va dasturlari imtiyozli tarif stavkalari asosida yaratilgan rivojlangan mamlakatlar bozorlarida eksportga asoslangan sanoatning rivojlanishiga yordam berishi mumkin. Bu, o'z navbatida, benefitsiarlarni og'ir narsalardan ozod qilishga yordam berishga ishonilgan asosiy mahsulotlar (masalan, xom ashyo)

savdosiga bog‘liqlikdir chunki ularning iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga va barqaror o‘shishga yordam beradi [3].

Sapir va Lundberglar ta’kidlashlaricha, GSP qisman ikkitasini yarashtirish vositasi sifatida yaratilgan va bu bo‘yicha dastlabki muzokaralar chog‘ida paydo bo‘lgan savdo tenglikning turli iqtisodiy istiqbollari tariflar va savdo bo‘yicha bosh kelishuv (GATT) sanaladi [4].

Rusudan Seturidze fikricha, GSP+ imtiyozlari so‘nggi uch yil ichida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YaIM)dir. U yuqori yoki yuqori o‘rta daromad deb hisoblash mezonlariga javob bermaydigan mamlakatlarga taqdim etiladi.

Siddiqui M.S.: “GSP+ qashshoqlikni kamaytirish va rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror o‘shishni rag‘batlantirishga qaratilgan. [5]”, deb tushuntiradi.

Yevropa ittifoqi jahonda katta iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlar tuzilmalari safiga kiradi. Xususan, ittifoq aholisi soni 185 million nafar, a’zo-mamlakatlar hududi dunyo yer maydonining 14 foizini egallaydi. Butun dunyo tabiiy gaz zaxiralarining 20 foizi, uning eksportining 50 foizi, nefti zaxiralarining 8 foizi va eksportining 18 foizi, ko‘mir zaxiralarning 22 foizi, jahonda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining 5,1 foizi Ittifoqqa a’zo davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.¹

METODOLOGIYA

Tadqiqotda nazariy mushohada, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, mutlaq farq, matematik va statistik guruhlash hamda boshqa usullardan foydalanilgan. Muammoning yechimiga olib boruvchi asosiy yo‘nalishlar belgilab olingan. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv trikotaj sanoati olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘ngi yillarda prezidentimizning to‘g‘ri iqtisodiy siyosati orqali 2022-yilning mart oyida Cotton Campaign xalqaro koalitsiyasi tomonidan 12 yil davom etgan o‘zbek paxtasi va undan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarga e‘lon qilingan boykot bekor qilinishiga erishildi. Bu tarixiy voqea to‘qimachilik sanoati vakillari uchun katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Ekspertlar fikriga ko‘ra, Boykot yechilishi 331 ta xalqaro brendlarning O‘zbekistonga qiziqishini ortishiga va xorijiy investorlarning oqimini kuchaytirishiga olib kelishi kutilmoqda. [6]

Shuni ta’kidlash joizki, so‘nggi 5 yil mobaynida to‘qimachilik sanoati mahsulotlari eksporti hajmi keskin oshdi, 2018 yilda mahsulot eksporti 1mlrd.dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021- yilda 2.9 mlrd AQSH dollarlik mahsulot 66 davlatga eksport qilingan bo‘lsa, 2022-yil soha korxonalari tomonidan eksport hajm va miqdor jihatdan oshib, 3,2 mlrd AQSH dollarga yetib, 70 dan ortiq davlatlarga eksport qilindi.

GSP + imtiyozlar tizimi bu rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar bozorlariga eksport qilinadigan tovarlarga bojxona tariflaridan imtiyozlar berish tizimi hisoblanib, deyarli barcha turdagi sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

¹ <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-va-eoii-hamkorlikning-istiqbolli-yonalishlari>

Xorijiy mamlakatlarga “GSP” doirasidagi imtiyozlarni taqdim etish jarayoni Yevropa parlamenti va Yevropa Ittifoqi Kengashining maxsus reglamenti talablariga asosan tartibga solinadi. “GSP+” tizimi doirasidagi imtiyozlarni qo‘lga kiritish bir nechta shartlar asosida amalga oshirilib, asosiy shartlardan biri bu mamlakat tomonidan 27 ta (7 ta — inson huquqlari, 8 ta — mehnat standartlari, 8 ta — atrof-muhitni muhofaza qilish, 4 ta — samarali davlat boshqaruvi sohasida) xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilish va uning doirasidagi majburiyatlarni samarali bajarish hisoblanadi. “GSP” reglamenti “GSP+” oluvchilarining majburiyatlarini doimiy kuzatib borishni nazarda tutadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda inson huquqlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, samarali davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlar o‘z samarasini berib iqtisodiyotimizda ham o‘z aksini topmoqda.

Yevropa Ittifoqi bilan savdo munosabatlarini mustahkamlash va O‘zbekistonning eksport geografiyasini kengaytirish yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2022-yil yakuni holatiga 628 ta korxona tomonidan (2021-yilning mos davriga nisbatan 116 ta ortiq) 647 mln. AQSH dollar miqdorida, ya’ni 2020 yilga nisbatan (292 mln. AQSH dollari) qariyb 2 barobardan ortiq hajmdagi mahalliy mahsulotlar Yevropa bozorlariga chiqarilgan. Jumladan, “GSP+” doirasidagi imtiyozlar asosida to‘qimachilik sanoatida – 177,4 mln. AQSH dollari. (2021 yilga nisbatan o‘shish – 126,4 foiz), kimyo sanoatida – 138,3 mln. AQSH dollari. (4,7 barobar), qishloq xo‘jaligi va oziq ovqat sanoatida – 19,7 mln. AQSH dollari. (103 foiz), elektrotexnika sanoatida – 9 mln. AQSH dollari. (117 foiz) miqdoridagi mahsulotlar Yevropa bozoriga eksport qilindi. 2022 yilda “GSP+” tufayli o‘zbekistonlik eksportchilar 28 million yevroga teng import bojarini tejab qolishdi. Bu Yevropa Ittifoqining O‘zbekiston xususiy sektorini rivojlantirishga qo‘shgan katta hissasidir. 2019 va 2022 yillar oralig‘ida bu ko‘rsatkich o‘n baravardan ko‘proq o‘sdi. [7]

Quyidagi jadvalda to‘qimachilik tikuv-trikotaj sanoatining 2020-2022 yillarda eksport ko‘rsatkichlari bilan tanishishimiz mumkin.

1-jadval

To‘qimachilik tikuv-trikotaj sanoatining 2020-2022 yillarda eksport ko‘rsatkichlari tahlili, mln. AQSH dollari

Eksport tarkibi	2021		2022		2023	
	Hajm	Foizdagi ulushi %	Hajm	Foizdagi ulushi %	Hajm	Foizdagi ulushi %
Umumiy eksport	2 931,2	100	3 229,1	100	3386,6	100
Yevropaga eksport	143,9	4,9	185,3	5,7	140,5	4,1

Manba: “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Yuqorida berilgan ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, sohada so‘ngi 2021-2023-yillarda Yevropaga eksport hajmi asosiy eksportdagi ulushi ham ortib borib, 2020- yilda 74 mln. AQSH dollari bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 185,3 mln. AQSH dollar bo‘lib sohadagi eksport ulushida 5,7 foizni, 2023-yilda esa 140,5 mln AQSH dollarini yoki 4,1 %ni tashkil etdi. Yevropaga eksport ko‘rsatkichlarini ijobiy

tendensiyasiga, albatta, 2021-yilning 10-aprel kuni Yevropa tomonining O‘zbekistonga preferensiyalar bosh tizimi (“GSP+”) bo‘yicha benefitsiar mamlakat maqomini berganligi muhim omil bo‘ldi. O‘zbekiston uchun Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv bo‘yicha maxsus preferensiyalar tizimi (“GSP+”) kuchga kirganligi natijalari esa mamlakat uchun eksportni rag‘batlantirishga muhim qadam bo‘ldi.

O‘zbekiston “GSP+” tizimi benefitsiar mamlakati maqomini olishga qadar Preferensiyalar bosh tizimi (“GSP”) doirasidagi imtiyozlardan foydalanib kelgan. Ushbu imtiyozlar doirasida mamlakat bojxona bojlari 3000 ta, pasaytirilgan bojxona boji stavkalari asosida 3200 ta tovar pozitsiyalarini Yevropa Ittifoqiga a‘zo mamlakatlar bozorlariga eksport qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lsa, (“GSP+”) imtiyozlari doirasida esa O‘zbekiston Yevropa bozoriga 6200 dan ortiq tovar pozitsiyalarini bojxona bojlari 3000 ta eksport qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

2-jadval

To‘qimachilik va tikuv trikotaj sanoatida Yevropaga eksportni mahsulotlar kesimida o‘rish ko‘rsatkichlari tahlili

Ming AQSH dollari

№	Mahsulot nomi	2020y. iyun — 2021y. may		2021y. iyun — 2022y. may		O‘rish ko‘rsatkichlari			
		Eksport qiymati	Mahsulot turlari	Eksport qiymati	Mahsulot turlari	Qiymati	Mahsulot turlari	Qiymati	Mahsulot turlari
	Jami	95 528,70	184	181 173,10	245	85 644,40	61	189,70%	133,20%
1	Ip kalava (tonna)	44 226,00	16	89 580,60	23	45 354,60	7	202,6	143,80%
2	Gazlama mato (ming m2)	23 003,80	21	32 462,00	36	9 458,10	15	141,1	171,40%
3	Trikotaj mato (tonna)	14 985,80	5	39 087,50	9	24 101,70	4	260,8	180,00%
4	Tikuv-trikotaj mahsulotlari	12 354,60	140	18 539,30	175	6 184,70	35	150,1	125,00%
5	Paypoq mahsulotlari (ming juft)	958,4	2	1 503,70	2	545,3		156,9	100,00%

Manba: “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan

Misol uchun, GSP+ berilgunga qadar, 2020 yil iyundan 2021 yil may oyigacha Yevropaga eksport qilinadigan mahsulotlar (tovar kodi) turi 184 tani tashkil qilib eksport 95,5 mln AQSH dollar bo‘lgan bo‘lsa Yevroittifoq bozoriga imtiyozlar berilgandan keyin mahsulot turi 61 taga ortib 243 xil mahsulot va eksport ko‘rsatkichi 181 mln AQSH dollarlik marradan o‘tdi, o‘rish ko‘rsatkichlari bo‘yicha umumiy eksport summasi 133,2 % tovar kodlari esa 189,7 % ga o‘sgan. Ip-kalavananing eksport ko‘rsatkichi 2 barobar o‘shib 89,6 mln tonna, trikotaj mato esa 2,6 marta ko‘tarilib 39 mln AQSH dollarga yetgan. Avval, asosan, tovar xomashyo eksport qilingan bo‘lsa, so‘nggi yillarda tayyor mahsulotlarni ulushi ham ortib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan bilishimiz mumkinki, O‘zbekiston GSP+ benefitsiari bo‘lgandan so‘ng Yevropaga to‘qimachilik mahsulotlarining eksport ko‘rsatkichi sezilarli darajada ko‘paygani kuzatildi. Bu tendensiyani davom ettirish

uchun Yevropa bozori talablariga xalqaro standartlarga mos keladigan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish zarur bo‘ladi.

To‘qimachilik mahsulotlarini jahon bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, korxonalarning moliyaviy barqarorlashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. Valyuta kurslarining keskin o‘zgarishi natijasida zararni oldini olish maqsadida kurs o‘zgarishini xedjirlash mexanizmlarini joriy qilish, buning uchun korxonalarga xorijiy valyuta birjalarida operatsiyalar o‘tkazishga ruxsat berish;

2. Eksportda QQSni qaytarish uchun mahsulotni jo‘natilganligini tasdiqlashni bojxona va soliq qo‘mitalarining axborotlar bazasini integratsiyalash orqali avtomatik ravishda aniqlashni yo‘lga qo‘yish, korxonalardan tasdiqlangan SMRni talab qilish amaliyotiga chek qo‘yish;

3. Xalqaro va mahalliy elektron savdo maydonchalari orqali elektron tarzda amalga oshirilgan mahsulotlarining eksportini hisobotlarida aks ettirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2-son Farmoni.

3. OECD Secretary-General. The Generalized System of Preferences: Review of the First Decade. Organisation for Economic Co-operation and Development, 1983, p. 9 (hereinafter OECD GSP Review).

4. Sapir A. and L. Lundberg, “The U.S. Generalized System of Preferences and its Impacts,” in R. Baldwin and A. Krueger (eds.) The Structure and Evolution of Recent U.S. Trade Policy, Chicago: The University of Chicago Press, 1984.

5. M.S.Siddiqui. Bangladesh at crossroad of GSP, GSP+ & LDC graduation. March 2022. <https://www.researchgate.net/publication/359437977>.

6. “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi hisobotlari.

7. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining rasmiy veb sayti <https://miit.uz/oz/news/tashkent-hosted-a-press-conference-on-expanding-capabilities-of-the-generalized-system-of-preferences-plus-gsp-of-the-european-union-for-uzbekistan>.

8. Xojiev E.Y O‘zbekiston eksport salohiyatini oshirishda gsp+ imtiyozlari tizimidan samarali foydalanishning ahamiyati Iqtisodiyot va ta’lim / 2023-yil 4-son // 31-36-b. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a4

9. Hakimov Z. Uzbekistan’s clothes market: Condition, competitive environment, and development //TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR). – 2017. – T. 6. – №. 2and3. – C. 4-11.

10. Ergashkhodjaeva Sh., Ahmadovich K. Z. Market Strategies for Introduction To The European Technological Products //Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN. – 2022. – T. 2249. – №. 0892.

11.Kirill K., Bobir T., Ziedulla H. Estimation methodology of efficiency of production capacity management at textile enterprises //Бюллетень науки и практики. – 2018. – Т. 4. – №. 1. – С. 228-241.

12.O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga o‘z mahsulotlari eksportining keskin o‘shishini kutmoqda.
<https://review.uz/oz/post/tekstilnaya-otrasl-uzbekistana-jdet-rezkogo-uvelicheniya-eksporta-svoey-produkcii-v-stran-es>.